Volume 3, Issue 1,2024

# EKOLOGIK TARBIYANI TA'LIM MUASSASALARIDA TAKOMILLASHTIRISH

***Toshbekov Nurbek Ahmadovich***
***Jamshitov Doston Rasul o'g'li***
*Buxoro davlat pedagogika instituti*

**Annotatsiya:** Ekologik muammolar insoniyat hayotiga xavf solib borayotgan hozirgi kunda ekologiya fanini respublikaning turli bosqichdagi tarbiya va o'quv muassasalarida tizimli o'qitish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada yosh avlodga maktabgacha ta'lim jarayonida beriladigan ekologik tarbiya rejasini qayta ko'rib chiqish, ekologiyani maktab ta'limida boshqa fanlar tarkibidan chiqarib, alohida fan sifatida o'qitish tartibini takomillashtirish, o'qitishning sifatini yaxshilash maqsadida malakali pedagogik kadrlar tayyorlash ishini rivojlantirish, oliy o'quv yurtlarida fanni o'qitishda mavjud bo'lgan muammolar haqida fikr mulohaza yurgiziladi.
**Kalit so'zlar:** Globallashish, maktabgacha ta'lim muasssasalari, ekologik tarbiya, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, oliy ta'lim, tizimli o'qitish, takomillashtirish, muammo, olimpiadalar.

Hozirgi kunda fan-texnika taraqqiyoti jadal sur'atlar bilan rivojlanib borishi natijasida dunyoning geosiyosiy tuzilishi o'zgarmoqda. Bunday sharoitda inson tomonidan biosferagava atrof-muhitga ko'rsatilayotgan ta'sirni tartibga solish, ijtimoiy taraqqiyot bilan qulay tabiiy muhitni saqlab qolishning o'zaro ta'sirini uyg'unlashtirish, inson va tabiatning o'zaro munosabatlarida muvozanatga erishish muammolari borgan sari dolzarb bo'lib bormoqda». Hozirgi kunda jamiyat bilan tabiat, inson bilan atrof-muhit o'rtasidagi keng qamrovli munosabatlar masalasi asrimizning umumbashariy ekologik muammosiga aylanib borayotganligi hech kimga sir emas. Tabiatni muhofaza qilish, biologik xilma-xillikni asrash, kelajak avlodlar uchun barqaror rivojlanishni ta'minlash ishlari yechimini kechiktirib bo'lmaydigan muammolardan hisoblanadi. Shularni inobatga olib, Respublikamizda ekologiya masalasini tubdan qayta ko'rib chiqish zarurligi haqida davlatimiz tomonidan bir necha qonun va qarorlar («Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida», «Ekologik ekspertiza to'g'risida», «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida», «O'simliklar va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida», qabul qilindi.
Bu hujjatlarda yoshlarni hamda keng aholi qatlamlarini ekologiya va atrof-muhit muhofazasi haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish hamda ularni tabiatga nisbatan ongli munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash, ulardagi ekologik madaniyatni yanada mustahkamlash borasidagi ishlarni yaxshilash masalalariga alohida e'tibor berish zarurligi ta'kidlab o'tilgan. Respublikamizda "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi"ning mukammal tizimini shakllantirish vatanimiz taraqqiyotining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan, O'zbekistonda uzluksiz ta'limni tashkil qilishning yangi texnologiyalarini yaratish ham respublikamiz rivojiga o'z hissasini qo'shib, barqaror rivojlanish konsepsiyasini amalga tatbiq etishga yordam beradi. Uzluksiz ekologik ta'limni Respublikamizda tashkil qilishning asosiy maqsadi jamiyatda amalga oshiriladigan yangilanish jarayonlariga mos keladigan, yoshlar o'rtasida, keng jamoatchilik qatlamlarida ekologiya va atrof-muhitni asrab-avaylash borasidagi xalqaro ta'lim standartlariga javob beradigan, samarali amaliy natijalariga erishadigan ta'lim tizimini yaratish hamda ularni amalga oshirishda davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini keng jalb qilish, muhimi, atrof-muhitni nafaqat bugungi kun uchun, balki kelajak avlod uchun ham asrashni talab qilmoqda.
Insoniyat sivilizatsiyasini halokatga yetaklayotgan ekologik muammolar ko'lamining tobora kengayib, umumbashariy tus olayotgan hozirgi kunda har bir fuqaroda, ayniqsa yosh avlodda, ekologik madaniyatni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Yashash muhitimizda sodir bo'layotgan salbiy tabiiy o'zgarishlar: ozon qatlamining siyraklashishi, global issiqlanish (yoki «muzlash davri»)ning jadallashuvi, atrof-muhit ifloslanishining tobora kuchayib borayotganligi –

bularning barchasida tabiatga o‘tkazilayotgan antropogen ta’sirning salmog‘i katta. Bugungi kunda inson o‘zining iqtisodiy quvvatini yuqori darajalarga ko‘tarish, bugun kechagidan, ertaga esa bugungidan «yaxshiroq» yashash ilinjida qudratli texnik vositalarni yaratib, ular yordamida tabiiy boyliklarni tobora ko‘p o‘zlashtirish ruhiyati bilan yashamoqda. Bu, albatta, sivilizatsiya rivojining zaruriy omillaridan biri. Ammo bu siyosatni to‘g‘ri yurgizish uchun u hayotda hukm suradigan ekologik qonuniyatlarni bilishi va ularga amal qilishi lozim. Aks holda ekologik tanglik yuz berib, sivilizatsiya inqirozini keltirib chiqarishi muqarrar. Shuning uchun ham yosh avlod uchun ekologik madaniyat, ta’lim va tarbiya erta yoshdan boshlanib, oliy ma’lumotli mutaxassis bo‘lib etishguncha tizimli davom etadi. Ekologiya va madaniyat juda keng tushunchalar bo’lib, madaniyat ekologiyaga va ekologiya madaniyatga turli sohalarda ta’sir ko‘rsatadi. Faqat madaniyatli kishigina tabiat va jamiyatning o‘zaro ta’sirini oqilona yo‘lga qo‘yishga intiladi. Texnikani ekologiyalashtirishning mohiyati zaharli gazlar va zaharli aralashmalarni havoga juda kam chiqaradigan dvigatellarni yaratish; daryo va dengiz kemalari tirqishlaridan suvga neft, moy va yonilg‘i oqishi ehtimolining oldini olish yoki bartaraf etish; tuproq qatlamlariga zarar keltirmaydigan traktor, ekskovator va boshqa texnikalar yaratishdan iborat. Bunday texnikani loyihachi va yaratuvchilari (xolbuki, ularning bir qismi bugungi kunda aynan kasbhunar kollejlari va oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olishmoqdalar) uning asoslarini ishlab chiqishda tabiatning o‘z-o‘zini qayta tiklash qobiliyatini hisobga olishlari kerak. Buning uchun esa yaratilajak loyihalarga tegishli muhandislik-texnik yechimlarni kiritish lozim bo‘ladi. Ekologik madaniyat quyidagilarni qamrab oladi: tabiatni muhofaza etish madaniyati, tabiat boyliklaridan foydalanish madaniyati, ekologik tizimni o‘zgartirish madaniyati kabilar. Sanoat va qishloq xo‘jaligidagi ishlab chiqarish jarayonlarini jadallashtirish tabiatdan to‘g‘ri foydalanish talablari bilan uzviy bog‘lanishi lozim. Ishlab chiqarish ta’limi sohasidagi mutaxassis yoki muhandis-pedagog tabiatdan oqilona foydalanish tartiblariga javob beruvchi texnikalar yaratishda va texnologik jarayonlarni ishlab chiqishda yoshlarning alohida o‘rni borligiga talabalar e’tiborini jalb etishi zarur.

Chunki mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan rejalarni amalga oshirish borasida g‘amxo‘rlik qilish ularning zimmasidadir. Hozirgi kunda respublikamizdagi uzluksiz ekologik ta’limni tashkil qilishni qoniqarli, deb hisoblab bo‘lmaydi. Bu dolzarb masalaning keyingi bosqichlari ekologik ta’lim maktablari, kasbhunar ta’limi muassasalari va oliy o‘quv yurtlarida hamda bevosita korxonalarda davom ettirilishi, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilarini nazariy jihatdan tayyorlash ishini ularning tabiatni muhofaza qilish borasidagi amaliy faoliyati bilan uzviy bog‘lash va to‘ldirish maqsadga muvofiq. O‘quvchilarning maktabda tabiatshunoslik, biologiya, geografiya, fizika, kimyo va boshqa fanlardan olgan bilimlaridan kasb-hunar ta’limi muassasalaridagi ekologik ta’lim va tarbiya jarayonida keng foydalanish, atrof-muhitni muhofaza etish uchun kurashish, so‘zsiz mustaqil respublikamizdagi har bir o‘quvchining fuqarolik burchiga aylanmog‘i lozim. Ekologik ta’lim-tarbiyaning muhim shakli o‘quvchilarning ishlab chiqarish ta’limi ustasida (sinf rahbari, o‘qituvchi, muhandis-pedagog, yotoqxona tarbiyachisi) rahbarligidagi tabiatni muhofaza etish, kasb-hunar kolleji hududlarini obodonlashtirish; ko‘chat-daraxtlar ekish va ularni nazorat qilish; qushlar va hayvonlar uchun uya va in qurish; buloq, ko‘l va ariqlarni axlat va chiqindilardan tozalash, qishloq va shahar atrofidagi oromgohlarga otaliq qilish va boshqalar bo‘yicha tashkil etilgan amaliy ishlaridir. O‘quvchilarning tabiatga bo‘lgan munosabati ularning axloqiy yetukligi va qay darajada tarbiyalanganlik darajasini ko‘rsatadi. Ekologik ong va ekologik bilimlar yoshlar dunyoqarashining tarkibiy qismi bo‘lmog‘i zarur. Zero, ekologik bilimlarsiz ekologik madaniyat ham shakllanmaydi. Umumta’lim maktab o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonida quyidagi tartiblarga amal qilish maqsadga muvofiqdir. Birinchidan, o‘quvchilarning hissiyotiga ta’sir etish, ular qalbida yoshlik chog‘laridanoq tabiatga muhabbat uyg‘otish lozim. Bu tarbiya qanchalik erta boshlanib, izchil rivojlantirilsa, u shunchalik ijobiy samara beradi. Ikkinchidan, o‘quvchilar ongida tabiatni

muhofaza etish va u bilan oqilona o‘zaro ta’sir masalalarida faol hayotiy nuqtai nazarni shakllantirishdan iborat bo‘lib, uni insonning axloqiy yetik saviyasi darajasi tarzida tavsiflash mumkin. Jamiyatning har bir a’zosi bizning hozirgi kunlarimizda ham, uning tabiiy muhit holatiga bog‘liqligi kamayish o‘rniga tobora ortib borayotganini anglashi zarur. Fan-texnika taraqqiyoti uchun, ayniqsa, uning yutuqlaridan amaliy maqsadlarda foydalanish uchun mas’ul bo‘lgan shaxslar oldida ob’ektiv talablar turibdi. Ular o‘ziga xos murakkab va o‘bog‘liq hodisalar mohiyatini teranroq anglashi, qaytmas jarayonlarni keltirib chiqarmaslik uchun tabiiy qonunlarga zid ishlar qilmasligi kerak. Uchinchidan, ekologik madaniyatni yuksaltirish ekologik ta’lim olishni uzluksiz davom ettirishni taqozo etadi. Umumta’lim maktab bitiruvchilari mustaqil faoliyati jarayonida ijtimoiy, tabiiy va texnikaviy fanlarni ham o‘rganib borishlari lozim bo‘ladi. Olingan bilimlarni kelgusida boyitish va rivojlantirish esa, mustaqil ishlashni talab etadi. Shuningdek, bunda korxona va tashkilotlarda ekologik yo‘nalishda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar ham katta yordam beradi. Yoshlarning dunyoqarashi va ekologik madaniyati bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. O‘quvchi va talabalarning tabiatga bo‘lgan munosabati ularning axloqiy yetukligi va qay darajada tarbiyalanganlik darajasini ko‘rsatadi. Ekologik ong va ekologik bilimlar yoshlar dunyoqarashining tarkibiy qismi bo‘lmog‘i zarur. Zero, ekologik bilimlarsiz ekologik madaniyat ham shakllanmaydi. Ekologik tarbiya-bu tabiatga mavhum muhabbat uyg‘otish vositasi emas, balki insonning tabiatga bo‘lgan oqilona munosabatini shakllantirish, mehr-muhabbatni barqarorlashtirish usuli. Shuning uchun ham u kishilarga bo‘lgan hurmat va e’tibor, ishonch, ular mehnati va hayotini e’zozlash orqali uzoq murakkab yo‘lni bosib o‘tadi. Biroq, ekologik tarbiyani sira ham ishontirish va ko‘ndirish, tabiatni sevishga chaqiruvchi quruq da’vatnoma tarzida tushunmaslik kerak, u ayni vaqtda, ma’lum darajada taqiq va qattiq jazo hamdir. Har qalay, tabiatni sevish, e’zozlash va uni chin yurakdan muhofazalash omili-bizning vatanparvarlik va fuqarolik burchimiz deb bilmog‘imiz shart. Bu esa ekologik tarbiya orqali yuzaga chiqadi. Ekologik ta’lim-tarbiyaga e’tibor bermaslik-kelajak avlodlarimiz hayotiga befarqlikdan boshqa narsa emas. Kamol topgan axloqiy, ezgulik, o‘z ehtiyojlarini cheklay bilish, boshqalarning mehnatiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish va nihoyat, ekologik savodxonlik biz uchun bugungi kunda zarur bo‘lgan narsalar ana shulardir. [2] Shunga qaramay, mamlakatimizda umumiy uzluksiz ekologik ta’limni tashkil qilish uchun yana bir qator ishlarni amalga oshirish zarur, deb hisoblaymiz:

● respublikamizning oddiy fuqarosidan tortib, to qaror qabul qiluvchi rahbargacha tegishli bo‘lgan umumiy ekologik ta’lim dasturini yaratish;

● umumiy ta’lim maktablari uchun ekologiya ta’limi konsepsiyasi va standartlari yaratish, Ekologiya fanini umumta’lim va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi tizimining o‘quv rejasiga kiritish;

● “Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” fanlarining oldiga qo‘ygan maqsad hamda vazifalariga oydinlik kiritish;

● uzluksiz ekologik ta’limda oila, maktab, mahalla va keng jamoatchilik birligini shakllantirish va biologik xilma-xillikni saqlash dasturini ishlab chiqishda milliy qadriyatlarga tayanish. Yuqoridagi fikrlarimizni amalga oshirish yurtimizda barqaror ekologik ta’lim tizimini yaratish va uni rivojlantirishga imkoniyat yaratishi shubhasizdir. Shuningdek, Oliy ta’lim muassasalarida ham ekologiya fanini o‘qitishda o‘z yechimini topishi zarur bo‘lgan ba’zi muammolar mavjud bo‘lib, fan o‘quv rejasiga «Ekologiya» nomi bilan kiritilgan. Ekologiya, aytilganidek, tirik organizmlar va ular bilan atrof-muhit o‘rtasidagi munosabatlar to‘g‘risidagi fan. Ammo shuni aytish lozimki, texnik yo‘nalishdagi Oliy ta’lim muassasalari talabalariga ekologiyani o‘qitishda, ba’zan, atrof-muhit muhofazasi bo‘yicha ma’lum darajada bilimlar berilishi bilan cheklaniladi. Buni ekologiya fanidan ishlab chiqilib, o‘quv jarayoniga tatbiq etilgan ba’zi o‘quv dasturlarida ham ko‘rish mumkin. Dasturni tuzishda ekologiya biologiya fanlari tarkibida yetishib chiqqan fundamental fan ekanligi, uning asosiy ob’ekti tirik organizmlar, shu jumladan inson, ekanligini unutmaslik kerak. Amaliy ekologiyaga taalluqli mavzulardan iborat bo‘lgan o‘quv dasturini «Sanoat ekologiyasi» fanini

o‘qitishda qo‘llash mumkin. Ekologiya fanini faqatgina o‘rta maxsus va oliy ta’lim tizimida o‘qitish bilimning poydevorini mustahkamlay olmaydi. Bizningcha, umumta’lim maktablari uchun ekologiya ta’limi konsepsiyasi va standartlarini yaratish vaqti keldi. Shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasalarida bajariladigan mashg‘ulotlarga ham ekologik ta’limning yoshga mos bo‘lgan elementlarini ko‘proq singdirish foydadan xoli emas. Buning uchun mashg‘ulotlar dasturini takomillashtirish, maxsus dasturlar ishlab chiqish lozim. Yuqorida aytilganlardan tashqari ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlari ekologiya o‘qituvchilari uchun joylarda malaka oshirish kurslari ishini yanada kuchaytirish zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Xayitov Yozil Kosimovich, Toshbekov Nurbek Axmadovich, Jumaeva Tozagul Ahzamovna. The Formation of Water Collector-Resources Drainage Network of Zarafshan Oasisand the Questions of Recycling. TEST Engineering & Management. 2020. 7380 – 27385. 2
2. Y.K Khayitov, N.A Toshbekov, T.A Zhumaeva. Criteria and scales of the secondary use of collector-drainage waters (on the example of the Bukhara oasis). Bulletin of the Karakalpak branch of the Academy of Sciences of the Republic. 2019.
5. T N Ahmadovich, H Y Kasimovich, J T Azamovna. Efficient use of water resources of the amu-bukhara canal. academik. An International multidisciplinary Research Journal 30, 2020.15-18.
6. YK Khayitov, NA Toshbekov, TA Zhumaeva. Efficient use of water resources of the amu-bukhara canal. academik An International multidisciplinary Research Journal 5, 30. 2020.
7. Toshbekov Nurbek Ahmadovich, Xayitov Yozil Kosimovich. Efficient Use Of Collector-Drainage Networks (On The Example Of Bukhara Region). The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering 2 (2), 10-15. 2021.
8. Toshbekov Nurbek Ahmadovich. Definition of ditches and possibilities of using them. Sovremennaya rossiyskaya nauka: aktualg’nqe voprosq. 2021.
9. N. Toshbekov. Buxoro viloyatidagi kollektor zovur suvlari meliorativ xolatini gidrologik baxolash. tsentr nauchnqx publikatsiy (buxdu. uz) 8 (8). 2021.
10. Xayitov Yozil Kosimovich, Toshbekov Nurbek Axmadovich, Jumaeva Tozagul Ahzamovna. The Formation of Water Collector-Resources Drainage Network of Zarafshan Oasisand the Questions of Recycling. TEST Engineering & Management, 27380 –27385.
11. Khayitov Yozil Qosimovich, Toshbekov Nurbek Ahmadovich, Zhumaeva Tozagul Aozamovna. Efficient use of water resources of the amu-bukhara canal. academik. An International multidisciplinary Research Journal 5, 30.
12. Khayitov Yozil Qosimovich, Toshbekov Nurbek Ahmadovich, Zhumaeva Tozagul Aozamovna. Criteria and scales of the secondary use of collector-drainage waters (on the example of the Bukhara oasis). Bulletin of the Karakalpak branch of the Academy of Sciences of the Republic.
13. Khayitov Yozil Qosimovich, Toshbekov Nurbek Ahmadovich. On some hypotheses of return water. The Way of Science, 39
14. Xayitov Yozil Kosimovich, Nurbek Axmadovich Toshbekov, Xamdamova Dilovar Nurullaevna. Gidrologicheskie osnovq ispolg’zovaniya drenajnqx setey (po premire buxarskoy oblasti). Monografia pokonferencyjna science. Research, development 26, 2020-28.02
15. Khayitov Yozil Qosimovich, Toshbekov Nurbek Ahmadovich, Zhumaeva Tozagul Aozamovna. Hydrological Assessment Of The Meliorative Condition Of Collector Drink Water In Bukhara Region. Nature and Science. MARSLAND PRESS 18 (4), 2020.99-101
16. Khayitov Yozil Qosimovich, Toshbekov Nurbek Ahmadovich, Zhumaeva Tozagul Aozamovna. Efficient use of water resources of the Amu-Bukhara canal. academik. An International multidisciplinary Research Journal 30, 2020.15-18

17. Toshbekov Nurbek Axmadovich. Scientific basis of water resources and their exploitation use (on the example of Bukhara region). Electronic journal of actual problems of modern science, education and.
18. N. Toshbekov. Scientific basis of water resources and their exploitation use (on the example of Bukhara region). Electronic journal of actual problems of modern science, education and. 2020.

